



## THE CONCEPT OF A SOCIAL STATE AND ITS ESSENCE

*Zafar Saydullayevich Botirov*

*Associate Professor, PhD*

*Al-Fraganus University*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** social state, welfare state, social protection, justice, well-being, democratic society, state responsibility.

**Received:** 02.12.25

**Accepted:** 03.12.25

**Published:** 04.12.25

**Abstract:** This article explores the concept and essence of the welfare (social) state, its historical evolution, and its contemporary role within democratic societies. It analyzes the core features of a social state, including the guarantee of citizens' rights, the development of social protection systems, equitable distribution policies, state responsibility, and mechanisms for ensuring sustainable public welfare. The study also examines Uzbekistan's prospects for developing as a social state and the reforms aimed at improving citizens' well-being.

## IJTIMOY DAVLAT TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI

*Zafar Saydullayevich Botirov*

*Al-Fraganus universiteti dotsent v.b.PhD*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya, adolat, farovonlik, demokratik jamiyat, davlat mas'uliyati.

**Annatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy davlat tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy shakllanish jarayoni hamda zamonaviy demokratik jamiyatdagi oʻrni ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Ijtimoiy davlatning asosiy belgilari — fuqaro huquqlarining kafolatlanishi, ijtimoiy himoya tizimining rivoji, adolatli taqsimot siyosati, davlatning ijtimoiy mas'uliyati va barqaror farovonlikni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida rivojlanish istiqbollari hamda islohotlar jarayonida aholi

## ПОНЯТИЕ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА И ЕГО СУЩНОСТЬ

**Зафар Саидуллаевич Ботиров**

*и.о. доцента Университета Аль-Фраганус, PhD*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

<p><b>Ключевые слова:</b> социальное государство, социальная справедливость, демократическое общество, ответственность государства.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В данной статье раскрываются сущность и содержание понятия «социальное государство», его историческое формирование и современное значение в демократическом обществе. Анализируются ключевые признаки социального государства: гарантирование прав граждан, развитие системы социальной защиты, политика справедливого распределения, социальная ответственность государства и механизмы обеспечения устойчивого благосостояния. Также рассматриваются перспективы развития Узбекистана как социального государства и инициативы, направленные на повышение уровня благополучия населения в условиях ongoing реформ.</p>
---	---

**Kirish.** Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy jarayonlar va boy ijtimoiy merosimizga asoslangan islohotlar adolatli siyosat yuritishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi huquqiy davlat prinsiplari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi. Huquqiy davlat fuqarolarning asosiy “huquq va erkinliklarini qonuniy himoya qilish vazifasini bajarsa, ijtimoiy davlat bu huquqlarning amalda ro‘yobga chiqishi uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy muhit yaratish” ni o‘z zimmasiga oladi. Shunday qilib, mazkur ikki konsepsiya bir-birini to‘ldirib, jamiyatda inson manfaatlarining ustunligini ta‘minlashda yagona mexanizm sifatida faoliyat yuritadi.

Mustaqil O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy davlat prinsiplarini qonunchilik va institutsional darajada mustahkamlash yo‘lida muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Xususan, yangi qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasiga “Ijtimoiy davlat” tamoyilining maxsus modda ko‘rinishida kiritilishi, aholining munosib hayot darajasini ta‘minlash, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi huquqlarni kafolatlash, mehnat va dam olish masalalarini himoya qilish davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida e‘lon qilinishi bunga dalildir.

O‘zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Inson qadr-qimmatini tushunchasi har bir fuqaroning xotirjam va xavfsiz yashashi, uning tayanch huquq va erkinliklarining ta’minlanishini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha har bir shaxs uchun munosib yashash sharoitlari va zamonaviy infratuzilma barpo etish, malakali tibbiy yordam ko‘rsatish, sifatli ta’lim berish, ijtimoiy kafolatlar tizimini yaratish, sog‘lom atrof-muhitni shakllantirish kabi vazifalarni nazarda tutadi”.

Insonning ulug‘lanishi, uning shaxsiy qadr-qimmatining e’tirof etilishi va ijtimoiy talablarining qondirilishi insoniyatning eng qadimiy intilishlaridan biri sanaladi. Bu masala tarixning turli davrlarida o‘ziga xos shakl va mazmunda namoyon bo‘lib kelgan va hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi muqaddimasida ta’kidlaganidek: “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatida tengdir, qadr-qimmat inson oilasining barcha a’zolariga xosdir”. Zamonaviy dunyoda globallashtirish sharoitida shaxsning o‘z qadr-qimmatini namoyon etishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shaxs o‘zining mavqeyini to‘g‘ri baholab, jamiyatdagi o‘rnini aniqlashga sa’y-harakat qilishi natijasida mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan huquqiy tamoyillar shakllanadi.

O‘zbekiston sharoitida fuqarolar manfaatlarini muhofaza qilishning asosiy vositalaridan biri ijtimoiy ko‘mak tizimi hisoblanadi. Bunday ko‘maklar asosan jamiyatning himoyaga muhtoj guruhlariga – yosh bolalar, keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar hamda o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlar tufayli ish bilan band bo‘lmagan fuqarolarga yo‘naltiriladi. Yordam kerak bo‘lgan aholi guruhlarining ehtiyojlarini aniqlash mamlakatdagi demografik siyosat samaradorligi bilan bevosita bog‘langan. Fuqarolarning daromad miqdori va iste’mol me’yorlari iqtisodiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, fuqarolarni ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish imkoniyatlari ham shunchalik kengayadi. Fuqarolar manfaatlarini himoya qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy muhofaza jamiyatdagi turli muammolarni hal etishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Aholini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash g‘oyalari XIX asr oxirlarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, maxsus termin sifatida XX asrning boshlarida shakllangan.

Ijtimoiy muhofaza tizimi o‘ziga xos tamoyillar va standartlarga asoslanadi. Bu tamoyillar jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida o‘zgarib, yangilanib boradi. Ijtimoiy muhofaza har bir tarixiy davrning o‘ziga xos talablari va imkoniyatlariga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. V.Kulikovning ta’kidlashicha, “bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy muhofaza jamiyat hayoti va xo‘jalik yuritishning ajralmas qismi bo‘lib, uning tashkiliy-huquqiy shakllari mehnat jarayonining uzluksizligini va ish kuchining tiklanishini kafolatlashi zarur.

Inson qadr-qimmatini ta'minlashning asosiy yo'nalishi barcha aholi guruhlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va turmush darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun turli mexanizmlar – moddiy yordamlar ko'rsatish, imtiyozlar berish, asosiy iste'mol mahsulotlari narxlarini tartibga solish, zaruriy oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mahsulotlarini taqsimlash kabi vositalar qo'llaniladi.

Ijtimoiy muhofaza konsepsiyasi o'zining keng ko'lamli mohiyati bilan jamiyatdagi rivojlanish mezonlarini o'zida mujassamlashtiradi va inson manfaatlarining birinchi o'rinda turishini kafolatlaydi. Zamonaviy tadqiqotchilarning fikricha, "ijtimoiy muhofaza – bu mehnatga qodir fuqarolarga mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritish va turmush sharoitlarini yaxshilash imkoniyatini yaratuvchi, shu bilan birga mehnatga layoqatsiz aholiga davlat tomonidan moddiy ko'mak, pensiya va nafaqalar ko'rinishida yordam ko'rsatuvchi huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy kafolat" lar majmuasidir.

Turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sish bosqichlari va o'tish davrlari bilan bog'liq ko'plab ilmiy yondashuvlar, kontseptual qarashlar va nazariy asoslar ishlab chiqilgan. Bu ilmiy-falsafiy yondashuvlarni quyidagi guruhlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- jamiyat shakllanishi va rivojlanish jarayonlariga bag'ishlangan g'oyalar;
- jamiyatning iqtisodiy va madaniy o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar va g'oyalar;
- jamiyatlarning yangi taraqqiyot bosqichiga o'tishi va transformatsiyasi bilan bog'liq nazariyalar.

Insoniyat tarixining umumiy qonuniyatlarini ochish va tahlil qilish masalasi qadimdan mutafakkirlar e'tiborini tortib kelgan.

Ijtimoiy davlat – o'z fuqarolariga minimal farovonlik darajasini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan, bozor munosabatlarining salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan davlat tizimi sifatida ta'riflanadi. Zamonaviy jamiyatlarning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi qadimgi davr mutafakkirlarining merosiga asoslanadi. Aristotel, Platon, Fridrix Nitshe va Immanuel Kant kabi faylasuflarning asarlari tarixiy jarayonda inson rolini, jamiyat rivojlanish bosqichlarini falsafiy jihatdan tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Platon jamiyatning ijtimoiy-siyosiy modelini ishlab chiqib, qonun ustunligining ahamiyatini ta'kidlagan.

O'rta Osiyo mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va Alisher Navoiydan tortib jadid namoyandalarigacha bo'lgan olimlar adolatli jamiyat qurish g'oyalarini rivojlantirgan. Bu allomalar ijtimoiy taraqqiyotda ilm-fanning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlagan. Ular turli jamiyatlar va xalqlarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilib, ularning ijtimoiy tuzumi, boshqaruv usullari va fuqarolar manfaatlarini hisobga olgan holda xulosalar chiqargan.

Beruniyning fikricha, adolatli va barqaror jamiyat qurish uchun ilmiy yondashuv, tarixiy tajriba va ma'rifatning uyg'unligi zarur. U jamiyat rivojlanishining asosi sifatida ilm-fanni

ko'rgan. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlarning tarixiy taraqqiyotini davrlashtirish va taqqoslash metodologiyasini ishlab chiqqan. U vaqtni o'lchashning universal usuli sifatida kunlarni taklif qilgan, chunki yillar va oylarning davomiyligi turli madaniyatlarda farqlanadi.

Abu Nasr Forobiy jamiyat rivojlanishida shaxslar, guruhlar va boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligiga katta ahamiyat bergan.

Yevropalik mutafakkir Jan Jak Russo jamiyat tuzilishining mantiqiy asoslari va adolatli rivojlanishini progress hamda regressning o'zaro ta'sirida ko'rgan. Uning nazarida jamiyatdagi tengsizlikning vujudga kelishi bir tomondan oldinga siljish, ikkinchi tomondan orqaga chekinish sifatida baholangan. Russo progressning manbasini takomillashuv jarayonlarida ko'rgan, ammo rivojlanish natijasida jamiyat umumiy foyda ko'rsa-da, alohida shaxs zarar ko'radi degan xulosaga kelgan. Russoning g'oyaviy maqsadi ijtimoiy kelishuv asosidagi demokratik jamiyat qurish edi.

Tarixiy rivojlanishning turli-tuman qonuniyatlari ijtimoiy hayotni nazariy jihatdan bosqichlarga ajratish uchun asos yaratadi. Jamiyat rivojlanishining barcha davrlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy hodisa va jarayonlar takrorlanib, har bir bosqichda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu kontekstda "Rivojlanish" va "Jamiyat rivojlanishi" atamaları falsafiy jihatdan alohida ma'no kasb etadi. Rivojlanish falsafiy kategoriya sifatida moddiy va ma'naviy obyektlarning qonuniy ravishda orqaga qaytmaydigan o'zgarishlarini, maqsadli ravishda yangi sifat holatiga o'tishini anglatadi.

Rivojlanish nazariyasi quyidagi sohalarga bo'linadi:

- falsafiy yondashuv;
- ijtimoiy yondashuv;
- ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv;
- texnokratik yondashuv;
- institutsional yondashuv.

Muhim jihat shundaki, "Rivojlanish" atamasi "Jamiyat rivojlanishi" atamasidan kengroq ma'noga ega. Bu jarayon doimiy yangilanish va o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Rivojlanish nazariyalarida o'sishni belgilovchi umuminsoniy, gumanistik maqsadlar ishlab chiqiladi va aniqlanadi.

Gumanitar fanlar nuqtayi nazaridan jamiyatning rivojlanishi va yangi sifat bosqichiga o'tishi tarixiy kelajakni belgilovchi asosiy xususiyat hisoblanadi. V.Inozemsev Foma Akvinskiyning insoniy munosabatlar shakllanishining uch bosqichini ta'riflaydi: "Dastlabki bosqichda insonlar yaxlit tizimga to'liq bo'ysunuvchi elementlarga o'xshatilgan. Ikkinchi bosqich fuqarolarning huquqiy mustaqillik darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi bosqichda esa insonlar birlashmalari yoki umumiy hamkorlik jamiyati vujudga keladi".

Insoniyat tarixi davomida rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos jihatlari turli metodlar yordamida tahlil qilingan. Ba'zi yondashuvlarda siyosiy, ijtimoiy va falsafiy nuqtayi nazar ustunlik qilgan bo'lsa, boshqalarida tarixiy-qiyosiy usulga asosiy e'tibor berilgan. Jumladan, 1918-yilda nashr etilgan Osvald Shpenglarning "Yevropaning so'nishi" nomli asaridagi dunyo tarixiy rivojlanishi haqidagi g'oyalar bugungi kungacha o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Mazkur asarda muallif insoniyat rivojlanishining turli davrlari – hind, qadimgi yunon, arab, O'rta Osiyo va G'arb sivilizatsiyalarining o'sish sur'atlarini jadval ko'rinishida qiyosiy tahlil qilgan. O. Shpenglarning ta'kidlashicha, jonlanmagan shakllarni o'rganish uchun matematik qonuniyatlar, jonli shakllarni tushunish uchun esa qiyoslash usuli qo'llaniladi. Shu asosda u dunyo tuzilishining qutblilik va davriylik xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi. O. Shpengler dunyoni idrok etish va bir rivojlanish davridan ikkinchisiga o'tish jarayonidagi hodisalar, ularning kelib chiqish sabablari, inson ongiga ta'siri va oqibatlarini tarixiy-falsafiy hamda madaniy-sivilizatsion nuqtayi nazardan tadqiq qilgan.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatning barcha qatlamlari rivojlanishida butun dunyo uchun xos bo'lgan ijtimoiy-tarixiy harakat umumiy xarakter kasb etadi. Har bir madaniy-tarixiy tizim o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, sivilizatsiyalarni bir-biri bilan taqqoslashda qaysi biri mukammalroq yoki ustunroq deb baholash nisbiydir. Sababi, har bir sivilizatsiyada diniy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlanish o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi.

Nemis faylasufi K. Yaspers insoniyat rivojlanishining muayyan davrlarida miloddan avvalgi asrlarda turli madaniyatlar bir-biridan mustaqil ravishda yuksalganini, bugungi fikrlash asosini tashkil etuvchi asosiy tushunchalar aynan o'sha davrlarda shakllanganini, dunyo dinlarining poydevori o'shanda qurilganini va ular hozirgi kunda ham insonlar hayotida muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Yaspersning nazariyasiga ko'ra, "muhim davr" – bu inson o'z-o'zini anglashga erishgan, hayotni yaxlit holda idrok etgan, mutlaq haqiqat va dunyo ravshanligini kashf etgan yangi bosqichdir. Yaspers bu davrni o'zining ijtimoiy-tarixiy jarayon konsepsiyasining asosi deb hisoblaydi va bu jamiyat rivojlanishining xilma-xillik tamoyiliga mos keladi.

Ko'plab omillar jamiyat rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy hodisa sifatida baholanadi. Ijtimoiy davlat shakllanish jarayonida obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri va bog'liqligi katta ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy davlatga o'tish demokratik institutlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda adolat, inson huquqlari, tenglik va farovonlik demokratik qadriyatlar sifatida asosiy mezon vazifasini bajaradi. Shuning uchun sivilizatsion yondashuv doirasida jamiyat rivojlanishida insonlar hayoti, ularning dunyoqarashi, bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishdagi moddiy-ma'naviy, siyosiy-ma'rifiy o'zgarishlar darajasini aniqlash zaruriyati tug'iladi.

Rus olimi L.N.Gumilyov quyidagi g'oyalarni ilgari suradi: Dastlab, jamiyat rivojlanishi va uning tabiiy muhit bilan aloqasi biosferaning umumiy qoidalariga bo'ysunuvchi yagona kompleks tizimni tashkil etadi; Keyinchalik, barcha tabiiy tizimlar biosferadagi tirik moddalar energiyasidan foydalanadi. Bu energiya turli yo'nalishlarda sarflanib, bir tizim ikkinchisi hisobidan mavjud bo'ladi, ular bir-birini to'ldiradi va natijada dinamik hamda tez rivojlanish kuzatiladi.

Jamiyat rivojlanishining turli sifat darajalarini ifodalovchi "Modernizm", "Antimodernizm", "Postmodernizm", "Neomodernizm" singari atamalar bilan nomlanuvchi nazariyalar mavjud. Ular jamiyatning turli tarixiy davrlardagi o'sish xususiyatlarini aks ettiradi.

G'arbiy mamlakatlarda modernizm nazariyasi XX asrning 50-60-yillarida keng tarqaldi. T.Parsons va U.Rostou kabi olimlar bu yondashuvning faol yoqlovchilari bo'lishdi. A.I.Utkin ta'kidlaganidek, ularning nazariy qarashlaridagi tafovutlarga qaramay, jamiyatlar yagona istiqbol sari intiluvchi umumiy kompleks ekanligini ilgari surganlar. Ular an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi farqni ajratib ko'rsatishgan: an'anaviy jamiyatlarda qadimiy qadriyatlar hukmron bo'lsa, zamonaviy jamiyatlarda an'analarni umumiy qolipga solish tendensiyasi kuzatiladi.

Shaxsning mustaqilligi, demokratik tuzum, liberal g'oyalar, diniy ta'limotlarni dunyoviy lashtirish modernizmning G'arbiga xos belgilari sanaladi. Bu jarayon dinning jamiyat hayoti va inson ongidagi rolini kamaytirish, diniy mezonlar o'rniga mantiqiy tamoyillarga asoslangan dunyoviy modelga o'tishni anglatadi. G'arb tomonidan ishlab chiqilgan bu yondashuv ijtimoiy tashkilotlar va madaniy tizimlarni yangilashda ilm-fanning yetakchi rolini ta'minlaydi. Biroq modernizm nazariyotchilari ba'zi jamiyatlar rivojlanish sabablarini to'g'ri baholay olmagan. Ular tarixiy jarayonni oddiy ikki davrga – an'anaviy va zamonaviy bosqichlarga bo'lish bilan chegaralanib qolgan.

Insoniyat ijtimoiy o'sishini tushuntiruvchi konsepsiyalardan yana biri antimodernizm bo'lib, u G'arbdan tashqari hududlar rivojlanish o'ziga xosliklariga alohida e'tibor beradi. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, "G'arbdan boshqa mintaqalar g'arb ta'siri doirasining kengayishiga faol qarshilik ko'rsatadi va bu jarayonga qiyinchiliklar, mojarolar hamda o'zgarishlar orqali kirib boradi".

Ijtimoiy o'sish jarayonida yangi munosabatlar, o'zgargan qadriyatlar, yangi talablar va me'yorlarni o'zida aks ettiruvchi jamiyatning tubdan yangilanishi ro'y beradi. Ijtimoiy rivojlanish haqiqiy o'sish jarayoni sifatida uch muhim xususiyatni – orqaga qaytmaslik, aniq maqsadga yo'nalganlik va yangi qonuniyatlarga asoslanish tendensiyalarini namoyon etadi. Bu jarayonda jamiyat a'zolarining aniq vazifalar tomon yo'naltirilgan hamkorlikdagi faoliyati kuzatiladi. Ijtimoiy o'sish darajasi millatning barqaror rivojlanishi, umumiy xavfsizlik va jamiyat maqsadlariga erishish uchun birlashish darajasini ham ifodalaydi.

XX asrning 70-yillari oxiri va 90-yillar boshida g'arbiy mamlakatlarda jamiyat rivojlanishiga yangicha yondashuv – postmodernizm nazariyasi vujudga keldi. Postmodernizm mohiyati mantiqiy shakllarning ko'p qirrali bo'lishi va plyuralizm, hayot faoliyatining turli-tumanligi hamda bu xilma-xillikni tabiiy va ijobiy holat deb qabul qilishdan iborat. Antimodernizmdan farqli o'laroq, postmodernizm radikal ijtimoiy tajribalar masalasida ijtimoiy-axloqiy muammolar va qadriyatlarni tiklash g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Sotsializm tizimining tanazzulga uchrashi natijasida postmodernizm o'rniga global rivojlanish masalalarini yangicha talqin qiluvchi fikrlash tarzi vujudga keldi va bu neomodernizm nomi bilan yuritiladi. Neomodernizm vakillari ilm-fan va an'anaviy me'yorlarga katta ahamiyat berishdi. Ular neoliberalizm tamoyillarini ustun deb hisoblab, islohotlarga davlat aralashuvini tanqid qilishdi.

Ijtimoiy davlat g'oyasi sivilizatsion yondashuvning zamonaviy mahsuli sifatida shakllandi. Ijtimoiy davlat mohiyatan inson qadr-qimmatini, jamiyatdagi tenglik, adolatlilik va birdamlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi bo'lib, qonun ustunligi orqali amalga oshadi. G'arbnining liberal-demokratik modeliga muqobil ravishda Sharq, Islom olami, Lotin Amerikasi yoki Afrika madaniy an'analari tayanuvchi yondashuvlar rivojlanmoqda. Bu ziddiyat emas, aksincha uyg'unlikka intiluvchi global birlashuv jarayonidir. Mazkur sharoitda ijtimoiy davlat g'oyasi insoniyatni umumiy taraqqiyot sari yetaklovchi asosiy tamoyil sifatida o'z mavqeyini mustahkamlamoqda. Sababi, u nafaqat iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni, balki fuqarolarning ijtimoiy muhofazasi, teng sharoitlar yaratish va barkamollikni o'z ichiga olgan insonparvarlik tamoyillarini ham kafolatlaydi.

Pol Kennedi o'zining "Yigirma birinchi asrga kirib borayotib" nomli asarida zamonaviy insoniyat rivojlanishining asosiy tendensiyasi barcha mamlakatlarning uzluksiz yangilanishi ekanligini ta'kidlaydi. XX asr oxirgi choragida yangilanish jarayoni natijasida xususiy mulk, bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyati, texnologik taraqqiyot va siyosiy demokratiya yo'lini O'rta Osiyo va Sharqiy Yevropa davlatlari ham tanladi. G'arb va Yaponiya mamlakatlarida turmush darajasi va hayot sifati sezilarli darajada yaxshilandi.

Jamiyat rivojlanishiga oid nazariyalardan yana biri marjenzalizm nazariyasi bo'lib, u jamiyat o'sishida inson faktori va uning ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yishi bilan ajralib turadi. Jamiyatning rivojlanishi inson taraqqiyoti konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda kechadi va bu zamonaviy davrda rivojlanish uyg'unligini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat bir rivojlanish bosqichidan keyingisiga o'tish muammosini hal etishda jamiyatni tashkil etuvchi shaxslarning ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqish zarur. T.Parsons bu yondashuv doirasida insoniyat tarixini uch global davrga ajratadi:

- dastlabki davrda jamoa manfaati shaxsiy manfaatdan ustun turadi;

- keyingi davrda shaxsiy moddiy manfaat jamoaviy manfaatdan ustunlik qiladi;
- uchinchi davrda esa ko'pchilik odamlarning manfaatlari an'anaviy moddiy chegaralardan oshib ketadi .

Jamiyat va uni tashkil etuvchi shaxslarning ijtimoiy hamda moddiy manfaatlari, mavjud ijtimoiy qarama-qarshiliklar yaxlit kompleksni hosil qiladi. T.Parsons bunday ijtimoiy tuzum hukmron bo'lgan davrni insoniyat tarixidagi "iqtisodiy davr" deb ataydi va qolgan ikki davrni "iqtisodiygacha bo'lgan davr" hamda "iqtisodiydan keyingi davr" deb tasniflaydi . Zamonaviy g'arb siyosatshunoslari, faylasuflari va sotsiologlar tomonidan bu atamalar keng qo'llanilmoqda.

XX asrning boshlarida jamiyat rivojlanishida misli ko'rilmagan o'zgarishlar ro'y berdi – ishlab chiqarish hajmi oshdi, sanoatning asosiy tarmoqlari ixtisoslashdi, moliyaviy kapital markazlashdi. Olimlar iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlarini faqat bozor omillari emas, balki jamiyatdagi hukmron qadriyatlar tizimi belgilashini aniqlashdi . Natijada, jamiyat o'sishini tushuntiruvchi "institutsionalizm" deb nomlangan yangi ilmiy yo'nalish shakllandi. Bu yo'nalish vakillari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi ijtimoiy nazorat mexanizmlarini yaratish va jamiyatning boshqariladigan rivojlanishini amalga oshirish g'oyasini taklif qilishdi. "Institut" tushunchasi doirasida ular ijtimoiy tashkilotlar (oila, davlat, kasaba birlashmalari) yoki muayyan guruhlar va butun xalqqa xos psixologik xususiyatlar, xulq-atvor shakllari – urf-odatlar, an'analar, axloqiy me'yorlar va boshqa ijtimoiy hodisalarni anglashgan.

Mamlakatimizda jamiyat o'sish davrlari va ijtimoiy davlat haqidagi tushunchalar o'zgarib bormoqda. O'zbekistonda ijtimoiy davlat muammolari, yangi jamiyatning ma'naviy tiklanish masalalari davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ishlarida muhim o'rin tutadi. Ularda "Ijtimoiy davlat va inson huquqlari" muammosi yangi g'oyaviy asosda yoritilgan bo'lib, taraqqiyot inson turmushida o'z aksini topgandagina haqiqiy e'tirof etilishi, uni fuqarolar o'zlari amalga oshirishi zarurligiga urg'u berilgan .

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, jamiyatlar o'sishi, bir tizimdan ikkinchisiga o'tishi, o'tish davri va uning davrlari, mohiyati haqidagi tushunchalar turli davrlardagi nazariya va konsepsiyalarda o'z aksini topgan. Ular xilma-xilligi bilan turli tarixiy davrlardagi voqelikka xos belgilarni namoyon etadi. Ijtimoiy davlat tushunchasi insonning erkinligi va qadr-qimmatini muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga asoslanib, jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlashga intiluvchi siyosiy va huquqiy tizimdir. Bu g'oya turli davrlarda va turli ijtimoiy-siyosiy tizimlarda turlicha mazmun kasb etgan, har bir tarixiy davrda o'ziga xos falsafiy va amaliy talqinlarga ega bo'lgan.

Ijtimoiy davlat g'oyasi bir qancha nazariy yondashuvlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning mohiyati zamonaviy demokratik me'yorlar, insonparvarlik tamoyillari va sivilizatsion o'sish jarayonlari bilan chambarchas bog'langan. Uning negizida nafaqat iqtisodiy manfaatlar,

balki inson ongi va dunyoqarashidagi ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar ham mujassam. Shu jihatdan Ijtimoiy davlat konsepsiyasi – bu faqat siyosiy institut emas, balki tarixiy jarayon natijasida yuzaga kelgan va kelajak taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha o'zbekiston respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni, 22.06.2020 yildagi PF-6012-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4872355>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4743>.
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1-modda. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
4. Эмзари А.Ю., Елен Н.Ж. Современный конституционализм: теория и перспективы развития // "Вестник Московского университета", МВД России, 2015, – №10. – С.77
5. Эмзари А.Ю., Елен Н.Ж. Современный конституционализм: теория и перспективы развития // "Вестник Московского университета", МВД России, 2015, – №10. – С.78
6. Куликов В.В. Современная экономика труда: Монография. – М.: Финстатинформ, – С.88.
7. Одегов Ю.Г., Руденко Г.Г., Митрафанов Н.Г., Рынок труда и социальное партнерство: Монография. –М.: 1998 – С.53-55
8. Игнатенко А.А.Общественно- политические взгляды средневековых мыслителей Востока. –М.: Мысль, 1983. –С. 44.
9. Briggs, A. The Welfare State in Historical Perspective // European Journal of Sociology. – 1961. – Vol. 2, № 2. – P. 221–258. – P. 228.
10. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. –Т.: Янги аср авлоди, 2011. – В.352.
11. Афлотун. Қонунлар. –Т.: Янги аср авлоди, 2008. –450 б.
12. Нитше. Зардўшт таваллоси. –Т.: Янги аср авлоди, 2007, – В.338.
13. Кант И. Критика чистого разума. Серия «Выдающиеся мыслители». –Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – С.672.
14. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар.1-жилд. –Т.: – В.21.

15. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. –Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – В.160.
16. Иноземцев В. Росколота цивилизация: научное издание. – М.: «Академия» - «Наука», 1999. – С. 73.
17. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Гейшталдт и действительность. / Пер. с нем., –М.: Мысл, 1993, -С. 257.
18. Ясперс К. Смысл и назначение истории. Пер.с нем. –М.: Политиздат, 1991. –32-33 с.
19. Гумилёв Л.Н. Роль климатических колебаний в истории народов степной зоны Евразии. // Истории СССР. 1967, №1. – С.107.
20. Осадчая Г.И. Социальная сфера общества: теория и методология социологического анализа. –М., 1996. – С.56
21. Уткин А.И. Глобализация: процесс и осмысление. –М.: Лого, 2001. – С.53.
22. Черданцев А.Ф. Теория государства и права. –М., 2002. –С.148.
23. Marjenzizm (fransuzcha – marginal – oxirgi, eng so‘nggi, eng yuksak ma’nolarini anglatadi). Ushbu maktablar yaratgan iqtisodiy ta’limot fanda “marjenzizm” ta’limoti deb nomlanib, XX asrning 30- yillarigacha o‘z mavqeyini saqlab turgan.
24. Парсонс Т. Система современных обществ. –М.: Аспект пресс, 1998. – С.214.
25. Раззаков Б. Место исполнительной власти в системе государственной власти // “Правовое государство: теория и практика” – М., 2017, – №4. – С.302-316
26. Saurov R.R. Ijtimoiy davlat qurishda demokratizm va konstitutsionalizm: xorijiy hamda milliy tajribalarning falsafiy jihatlari. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro. 2025. -В.65.